



MUHAMMAD AL-XORAZMIY

**“ILM-FAN VA TA’LIMDA
INNOVATSION YONDASHUVLAR,
MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”**

**KO’P TARMOQLI 24-SONLI RESPUBLIKA
ILMIY-ONLAYN**

KONFERENSIYASI

01 ANIQ VA TABIIY FANLAR

PEDAGOGIKA FANLARI **02**

03 IJTIMOY-GUMANITAR FANLAR

FILOLOGIYA FANLARI **04**



OPEN ACCESS

Crossref doi



FARG’ONA VILOYATI, FARG’ONA SHAHRI
ISTE’DOD KO’CHASI 1-UY, 1-XONADON



+99891-152-93-14



WWW.ACADEMIASCIENCE.ORG

“ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 24-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI



“ACADEMIA SCIENCE”

“UzACADEMIA”

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

ISSN (E) – 2181 – 1334

“ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVATSION
YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA
YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 24-SONLI RESPUBLIKA
ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

30-MAY, 2022-YIL

1-QISM

MATERIALS OF THE 24TH REPUBLICAN SCIENTIFIC-ONLINE
CONFERENCE ON “INNOVATIVE APPROACHES, PROBLEMS,
SUGGESTIONS AND SOLUTIONS IN SCIENCE AND EDUCATION”

30 MAY 2022

PART-1

Google Scholar

I^{WORLD} of
JOURNALS



www.academiascience.uz

“UzACADEMIA” scientific-methodical journal
www.academiascience.uz

TAHRIRIYAT

Editor in chief

Eshmatov Gayratjon Marupovich

Executive Secretary

Abdullayev Ravshanjon Inomjon ugli
*He is a history teacher at Baghdad District
8 Secondary School*

Preparing for publishing

Karimov Bobur Murodjon ugli

Bosh muharrir

Eshmatov G'ayratjon Ma'rupovich

Mas'ul kotib

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li
*Bag'dod tumani 8-umumiy o'rta ta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi*

Nashrga tayyorlovchi

Karimov Bobur Murofjon o'g'li

Tahrir kengashi a'zolari

Sultonali Mannopov

O'zbekiston xalq artisti, professor

Eshmetov Izzat Do'simbatovich

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
texnika fanlari doktori, professor*

Matibaev Taspolat Baltabaevich

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), Professor, Turon FA Akademik

Abdullayev Muzrobjon Gulamovich

Andijon davlat universiteti, professor

Akramova Shahnoza Abrorovna

*Milliy gvardiya Xarbiy-texnika instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasini
mudiri, Pedagogika fanlari doktori, dotsent*

Arslanov Sharafutdin Sultanovich

kimyo fanlari doktori, professor

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Oripov O'rolboy Ahmedovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, PhD

Fazliyeva Zebo Kamarbekovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat ishtituti, dotsent

Azimov Baxtiyor Ganievich

O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Xusanova Xayriniso Tayirovna

O'zMU, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Smaylova Gulmari Yuldashevna

Dotsent

Bazarov Otabek Odilovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Popov Dmitriy Vladimirovich

*Andijon mashinasozlik instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

Xudoyberdiyev Elyor Xatamovich

*Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi raisining birinchi
o'rinbosari, "Shuhrat" medali sohibi*

Atadjanova Ma'rifatxon Qurbonaliyevna

Furqat tumani XTB boshlang'ich ta'lim metodisti

Toshtemirov Otabek Abidovich

Farg'ona politexnika instituti

**“ILM-FAN VA TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 24-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYASI**

54.	Mutalipova Diloromxon Baxtiyorjon qizi, Tosheva Dilnora Zohid qizi YALPIZ VA UN DAN OLINADIGAN EFIR MOYINING KIMYOVIY TARKIBI VA SHIFOBOXSH XUSUSIYATLARI	179
55.	Abdukodirova Zilolaxon Tulkunovna FE’LNI O’RGANISH METODIKASI	182
56.	Алимова Лола Адилжоновна ВЛИЯНИЕ СКОРОСТИ ПОТОКА ВОЗДУХА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРЯМОГО ИСПАРИТЕЛЬНОГО ОХЛАДИТЕЛЯ	185
57.	Фуломжон Курбонов ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИАТЛАРИ	188
58.	Zakirova Dिल्фуза, Nishonova Sayyora FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA DINIY BAG’RIKENLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIKNING ANAMIYATI	191
59.	Jannazarova Indira QARAQALPAQ AWÍZEKI DÓRETPELERIN OQÍTIW USÍLLARÍ	194
60.	Исмаилова Насиба Ташболтаевна ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	197
61.	Кулматова Фируза Мамадалиевна ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ	201
62.	Лутфуллина Альфия Ахмадфаридовна ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ ТОПОНИМОВ	206
63.	Тайырбекова Рисгуль Нарбаевна РОЛЬ МИНИ-ЛЕКЦИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ	209
64.	KurbanovMuzaffarAbdumutalibovich, Alimova Ma’muraxon Raximberdiyevna PARALINGVISTIK VOSITALARNI NUTQ VA MULOQOTDA QO’LLASH SHARTLARI	211
65.	Mirzahmedova Fazilat Mamayunusova TARBIYA BEPARVOLIKNI KECHIRMAYDI	216
66.	Алишер Рўзикулов Бозорович, Юсупова Умида Шакировна ШАҲРИСАБЗ МИСГАРЛИК САНЪАТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ	218
67.	Mamataliyeva Mukammal Nimadjonovna UMUMTA’LIM MAKTABLARI BIOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	221
68.	Курязов Р., Мухаммадиев У.И. ЁШ ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЪИРГАРЛИГИНИ ОШИРИШ	225
69.	Nurmatova Yulduzxon Hamidjonovna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG’ZAKI IJDODINING O’RNI	228
70.	Parpiyeva Yoqutxon Bozorovna ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGI FANIDAGI O’ZGARISHLAR TA’LIM ISTIQBOLI	231
71.	Разоқова Насиба Жабборовна БИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ	233
72.	Rahmanqulova Guliston Djumanazarovna TABIY GEOGRAFIYA TAJRIBA METODI MATERIALLARIGA ASOSLANGAN TA’LIMNING ANAMIYATI	236
73.	O’rinboev Ro`zmatjon Umidjon o`g`li FARG`ONA VODIYSI SUV RESURSLARI VA ULARNING XALQ XO`JALIGIDAGI ANAMIYATI	239
74.	Красновская Мария Александровна ПРОЕКТНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ НА УРОКАХ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА	243
75.	Абдуллаева Рохатой Куглиевна ТРУДНЫЕ ТЕМЫ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ 20 ВЕКА В УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЕ	247
76.	Urmanova Gulbahor Urinbaevna, Khamroeva Munisa Rizokhulovna, Yusupova Oyjamol Gulomovna QUALITY REWRITING OF TEXT	250
77.	Эркинбаева Дилрабо Эркинбай кизи ВНУТРИМАТОЧНЫЕ ПАТОЛОГИИ В СТРУКТУРЕ БЕСПЛОДИЯ ЖЕНЩИН И ЗНАЧЕНИЕ ГИСТЕРОСКОПИИ В ДИАГНОСТИКЕ И ЛЕЧЕНИИ	253
78.	Abdurazozokova Xurshidaxon Maxammadiyevna MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA TOPONIMIK MA’LUMOTLARDAN FOYDALANISH	255
79.	Mahkamova Shalolaxon Yusupjonovna, Madraximova Maxfuza Anmedovna “INFORMATIKA O’QITISH METODIKASI” FANIDAN “PEDAGOGIK FAOLIYATDA MASHG’ULOT TAHLILI” MODULINI O’QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	259

**YALPIZ VA UNDA O'LINADIGAN EFIR MOYINING KIMYOVIY
TARKIBI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI**

Mutalipova Diloromxon Baxtiyorjon qizi
Buxoro davlat universiteti Organik va fizkolloid
kimyo kafedrasi o'qituvchisi

Tosheva Dilnora Zohid qizi
Buxoro davlat universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti
“Kimyo” yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda dorivor efir moyli o'simliklarga talab yuqori bo'lganligi sababli aynan O'zbekiston hududida o'sadigan dorivor efir moyli o'simliklarni o'rganish, ularning kimyoviy tarkibini o'rganib tibbiyot va sanoatda tadbqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu sababdan ushbu maqolada yalpiz o'simligining dorivor xususiyati va uning amaliy ahamiyati haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Osiyo yalpizi, yalpiz moyi, nastoyka, efir moylari, mentol moddasi, antikoagulyant, flavanoid, vitamin, antiseptik, ekstraksiya.

Yalpiz — labguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, dorivor va efirmoyli o'simlik. Shimoliy yarim sharning iliq iqlimli mintaqalarida 20-25 turi tarqalgan. Yevropa mamlakatlari, AQSH, Ukraina, Belarus va Shimoliy Kavkazda yalpizning taxir (achchiq) yalpiz va jingalak yalpiz Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshqa mamlakatlarda dala yoki suv yalpiz turlari ekiladi. O'zbekistonda 4 turi: suv yalpizi, Osiyo yalpizi, taxir (achchiq) yalpiz va jingalak yalpiz kabi turlari yovvoyi holda o'sadi. may-oktabr oylarida gullaydi.

Kimyoviy tarkibi. Barglarida 2, 5— 3 %, gullarida 4—6 %, poyasida 0, 3 % mentol (validolning tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladi)ga boy bo'lgan efir moyi, shuningdek, flavonoidlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar bor. Yalpizning yangi va quritilgan barglaridan olingan efir moylari tahlil qilinganda uning tarkibida 36 ta komponent borligi aniqlangan, ularning 94 % ini uchuvchi moddalar tashkil qiladi. Efir moyi tarkibida asosan mentol (45 % gacha), menton, mentofuran, 1, 8-sineol, mentil asetat, neoizomentol, limonen kabi kimyoviy birikmalar mavjud. Bularning foiz tarkibi har xil adabiyotlarda turlicha keltiriladi, natijalar o'rtasidagi bunday farqlar o'simlikning geografik kelib chiqishi, genetikasi va yig'ish vaqti, shuningdek ekstraksiya usuli bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Efir moyining sifati esa hosil vaqtlariga, ya'ni ekishdan keyin 90, 110 va 120 kunlik hosil natijalariga bog'liq.

Bundan tashqari o'simlik namunasini quritish vaqtida efir moyining kimyoviy tarkibi sezilarli darajada o'zgaradi, ya'ni uning tarkibidagi ayrim moddalarning miqdori oshadi, ayrimlari esa boshqa moddalarga aylanadi. Bunga sabab oksidlanish, glikozid gidrolizi, eterifikatsiya va boshqa jarayonlar ta'sir qiladi va efir moyi kimyoviy tarkibi quyidagicha bo'ladi: α -tugen, α -Pinen, kamfen, sabinen, β -Pinen, mirsen, 3-oktanol, α -Terpinen, p-simen, limonen, 1, 8-sineol, sis- β -Osimen, γ -Terpinen, linalool, izopulegol, menton, mentofuran, neoizomentol, mentol, terpinen-4-ol, neomentol, α -Terpinoel, pulegon, piperiton, mentol asetat, mentil asetat, β -Bourbonen, β -Elemen, β -kariofillen, trans- β -Farnezen, D- Germakren, bisiklogermakren, Δ -kadinen, spasulenol, kariofillenoksid, viridiflorol.

Ishlatilishi. Tibbiyotda yalpiz bargidan tayyorlangan tindirma (nastoyka) va damlamasidan ko'ngil ayniganda hamda o't haydovchi vosita sifatida foydalaniladi. Barglari va poyasidan olingan yalpiz moyi parfyumeriya, oziq-ovqat sanoatida va tibbiyotda ishlatiladi. Me'da-ichak, siydik yo'li xastaliklari, yo'tal va bosh og'rig'ini davolashda hamda hasharot va ilon chaqqanda ham yalpizning foydasi ko'p. Yalpiz choyga yoki taomlarga qo'shib iste'mol qilinsa, tanani biroz qizdiradi, qon aylanishini yaxshilaydi, xastalikdan tuzalayotganda quvvatni oshiradi. Yalpizning yurak faoliyatini yaxshilashi, tez-tez urishi oldini olishi, qon aylanishini me'yorga keltirishi va terlatish xususiyatlari alohida ajralib turadi. Undan shamollashda va isitmani tushirishda foydalanilgan. Yalpiz tarkibidagi taninlar me'dani qo'zg'alishdan himoyalaydi, ichburug'ning oldini oladi, qorindagi yarali ich qotishga shifo. Uning tarkibidagi taxir moddalar jigar va o't qopini mustahkamlaydi, shuning uchun jigarni tozalash, o't qopi toshlarini tushirishda ham yalpizdan foydalaniladi.

Yalpiz efir moyi. Xushbo'y, terini mustahkamlash xususiyatiga ega. Shuning uchun u vanna qabul qilishda ishlatiladi. Bosh aylanish va hushdan ketish holatida hidlanadi. Artrit va bo'g'imlar podagrasida yalpizning yangi uzilgan barglari og'riq joyga ezib bog'lanadi. Yalpiz tarkibidagi efir moylari, ayniqsa, kamfora va mentol moyi a'zolarni sovuq urganda, biror joy tilingan yoki chaqa bo'lganda gazak olib yiringlashdan saqlovchi yaxshi antiseptikdir. Shuningdek, bu moyi nafas yo'llari xastaliklarida hidlash va tomoq og'rig'ini qoldirish uchun og'iz chayish foyda beradi. Yalpiz moyi tish og'rig'ini qoldiradi, bir tomchisi quloq og'rig'iga davo. Quritilgan yalpiz bargini choyga qo'shib yoki damlab ichilsa, turli me'da-ichak buzilishlarida yordam beradi. Yalpizning ozishda ham foydasi katta. Efir moyi qo'shib tayyorlangan yalpizli vosita teri yallig'lanishiga qarshi qo'llanadi va yuz terisini tiniqlashtirib, tonusini oshiradi. Yalpizli efir moyi yordamida amalga oshirilgan issiq ingalyatsiya tumovning ilk bosqichlaridayoq undan qutulishga yordam beradi. Yalpiz moyi qichishish, achishish, qizarish va hasharotlar chaqqan yerlardagi shishlarni bartaraf etadi. Yalpiz ekstrakti antibakterial xususiyatga ega bo'lib, og'iz bo'shlig'i

parvarishiga oid vositalar tarkibiga kiradi. Yalpizli choy hayz vaqtidagi og'riqlarni qoldirib, klimaks alomatlarini yengillashtiradi. Yalpiz qaynatmasi ovqat hazm qilish jarayonini me'yorga keltiradi, gaz hosil bo'lishini bartaraf etib, ko'ngil aynishidan xalos qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Handbook of Chemistry and Physics, 71st edition, CRC Press, Ann Arbor, Michigan, 1990.
2. Kizi M. D. B., Kizi T. D. Z. DIFFERENT CHEMICAL ANALYSIS METHODS OF EXTRACTING AROMATIC ESSENTIAL OILS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 4. – C. 1437-1441.
4. www.beziza.com